

O'QUVCHILARDAGI KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KREATIV PEDAGOGIKASI ASOSLARI

Safarova Madina Azamat qizi

JDPU 2-bosqich tayanch doktoranti

madinaturakulova54@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15703963>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini rivojlantirishning kreativ pedagogikasi, kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari, metod va texnologiyalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar; innovatsion; o'quvchilar; kreativ; pedagogika; kreativ shaxs; metod; texnologiya; rivojlantirish; kreativlik daraja; mezon; baholash; raqamli ta'lim; rag'batlantirish; didaktik asos.

Hozirda mamlakatimiz yoshlarini xar tamonlama yetuk barkamol avlod qilib shakllantirishga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda va bu davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib ham bo'lgan. Kreativlik, ya'ni ijodkorlik, zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismidir. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning shaxsiy va professional hayotida muvaffaqiyatga erishishlari uchun muhimdir. Kreativ pedagogika – bu ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga qaratilgan yondashuvdir. U o'quvchilarni innovatsion fikrlashga, yangi g'oyalar ishlab chiqishga va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga undaydi. Kreativ pedagogikaning asoslari va o'quvchilardagi kreativlikni rivojlantirish ushbu bosqichlardan iborat:

- kreativ shaxsni shakllantirish bosqichlari. Bu yerda o'quvchilardagi kreativ tafakkurni shakllantirish, o'quvchilardagi kreativ qobiliyatning shakllanganligi, o'quvchilardagi kreativlikka xos xususiyatlar, kreativlikni tashxislash kabilardan didaktik asos sifatida foydalaniladi. Bundan o'quvchilardagi kreativlikni rivojlantirishga oid innovatsion metod va texnologiyalar ishlab chiqishda foydalaniladi;
- shaxs kreativligini rivojlantirish bosqichlari. Ushbu tarkibiy qismida boshlang'ich ta'limning barcha bosqichlaridagi (1-4 sinf o'quvchilaridagi) o'quvchilar tafakkur qamrovini hisobga olgan holda ta'lim olib borish asosiy e'tiborda bo'ladi. Bundan o'quvchilardagi kreativlik darajasini aniqlash va baholash mezonini ishlab chiqishda foydalaniladi;
- shaxs kreativligini shakllantirish metodlari. Bu bosqichda ushbu sohada olib borgan tadqiqotimizdagi "O'quvchilarni kreativlik fikrlashga o'rgatishning muloqotlar maydoni muhiti metodikasi" dan didaktik asos sifatida foydalanamiz. Bu manbadan didaktik asos sifatida foydalanishga sabab qaralayotgan innovatsion metodikada bir tomonlama muloqot, ikki tomonlama muloqot va ikki tomonlama guruhli muloqotlar muntazam ravishda bab – baravar ishchi holatda bo'ladi va ular quyidagidek aqliy operatsiyalar negizida amalga oshiriladi: da'vat; anglash; mulohaza va optimal qaror qabul qilish. Bu tarkibiy qismlardagi metodlardan boshlang'ichdagi qaysi fanda qanday kreativ metodikadan foydalanishni ilmiy – metodik jihatdan asoslashda foydalaniladi;
- shaxs kreativligini rivojlanish texnologiyalari. Mazkur tadqiqot ishimizda zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlari biri bo'lgan raqamli ta'lim texnologiyalariga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunday e'tibordan foydalanishga sabab, **birinchidan**, raqamli texnologiyalardan foydalanib o'rganilayotgan mavzu (fanni) mos virtual materiallarini tayyorlab olib, undan amaliyotda foydalanishga keng imkoniyatlar mavjud, **ikkinchidan**,

boshlang'ich ta'limga oid (mavzu, fan, tushuncha va h.k.) pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish mumkin, **uchinchidan**, raqamli texnologiyalardan foydalanib o'quv jarayonida to'ldirilgan reallik texnologiyalardan foydalanishga keng imkoniyatlar mavjud, **to'rtinchidan**, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilardagi kreativlikni rivojlantirishga oid kompyuterli didaktik o'yinlarni tashkil qilib, treninglar olib borish mumkin, **beshinchidan**, raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida trening mashg'ulotlari uchun trenajyorlar ham tayyorlash mumkin. Bu orqali o'quvchilardagi kreativlikni rivojlantirishning optimal variantlaridan birini yo'lga kiritish mumkin bo'ladi.

Ushbu tarkibiy qismlardagi materiallardan multimediali ta'lim texnologiyalar va ularga asoslangan holda tayyorlangan elektron o'quv – didaktik materiallar (pedagogik dasturiy vositalar, intellektual o'qitish tizimlari, mavzuni (fanni) o'rganishga oid "Didaktik portfel" tayyorlash, elektron albom, elektron atlas, virtual stendlar, audio va video materiallar, raqamli video lavhalar)ni tayyorlashda foydalaniladi. Bu materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kreativlikni rivojlantirishda mustahkam ko'rsatmaviy didaktik asos bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan o'quvchilardagi kreativlikni rivojlantirishning uch bosqichlari (o'quvchilardagi kreativlikni rivojlantirishning didaktik asoslari, nazariy asoslari va kreativ pedagogikasi asoslari) mazkur tadqiqot ishimizning ilmiy – amaliy qismiga o'tishga to'liq imkoniyatlar yarata oladi. Bunday deyishimizga sabab, bu olib borgan tadqiqotimizga asoslangan holda o'quvchilardagi kreativlikning rivojlantirishga oid optimal variantlaridan birini kafolatlash mumkin bo'ladi, ya'ni olib borgan tadqiqotimizga asoslangan holda boshlang'ich ta'limga oid fanlar bo'yicha turli yo'nalishdagi mulohazali va qiziqarli masala va topshiriqlarni hal qilish jarayoni samarali kechadi. Bular esa shubhasiz shaxs kreativligida muhim didaktik jihatlar bo'lib hisoblanadi va shu texnologiya asosida ta'lim – tarbiya olgan yoshlar orasidan intellektual salohiyatli innovatsion rivojlangan shaxsning shakllanishida mustahkam poydevor bo'la oladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулахатов А. Р., Жумадурдиев Б. Х. Талабаларнинг креатив қобилятини шакллантириш // Компетенцияли ёндашувли таълим тизимини ташкил этиш усуллари: Халқаро илмий – амалий конференция материаллари. – Жиззах, 2021. – Б. 275 – 277.
2. Айтышова Ж. Т. Особенности организации педагогической работы с одарёнными детьми в сфере образования // Қиёсий педагогиканинг долзарб масалалари ва ечимлари: Халқаро илмий – амалий конференция материаллари. – Жиззах, 2022. – Б. 195 – 201.
3. Алешева Л. Н. Интеллектуальные обучающие системы // Вестник университета. – М., 2018. - № 1. – С. 149 – 155.
4. Артюхина М. С. Интеллектуальное воспитание обучающихся в контексте интерактивных технологий обучения // Педагогика и просвещение. – М., 2014. - № 4. – С. 42 – 50.
5. Рахматова Ф. А., Тўрақулова Н. Х., Тўрақулова М. А. Математика фанидан ўқиш китоби. Ўқув – методик қўлланма. – Т.: I N NOVATSIYA – ZIYO, 2020, 390 б.

6. Тўрақулов Х. А., Тўрақулова И. Х., Осланова К. С. Бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув – билув фаолиятини юксалтиришнинг инновацион технологиялари. Монография. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт – матбаа уйи”, 2020, 336 б.
7. Тўрақулов Х. А., Тўрақулова М. А. Бошланғич таълимда рақамли дидактик ўйинлар // Таълим тизимида ижтимоий – гуманитар фанлар. ИМЖ. – Т., 2017. - №1. – Б. 74 – 77.
8. Рахматова Ф. А., Тўрақулова М. А. Ўқувчиларни креатив фикрлашга ўргатишнинг педагогик механизмлари. Магистрлик диссертация.

INNOVATIVE
ACADEMY